

**Markaziy osiyo sun'iy intellekt assotsiatsiyasi NNT  
va Toshkent davlat yuridik universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida  
MEMORANDUM**

“Markaziy Osiyo Sun'iy Intellekt Assotsiatsiyasi” NNT (keyingi o‘rinlarda – Assotsiatsiya) nomidan rais Norov Vladimir Imamovich bir tomondan, Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda – TDYU) nomidan Birinchi prorektor Xashimhonov Ahrorxon Muminovich ikkinchi tomondan, (birgalikda keyingi o‘rinlarda – Tomonlar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5987-son Farmoniga muvofiq ushbu Memorandumni quyidagilar bo‘yicha imzoladilar:

**Muqaddima**

Sun'iy intellektni (keyingi o‘rinlarda – SI) rivojlantirish va tartibga solish sohasidagi umumiy manfaatlar va maqsadlarni inobatga olib, Tomonlar sheriklik munosabatlarini o‘rnatish hamda SI huquqi, kiber huquq va u bilan bog‘liq sohalarda samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish istagini bildirmoqdalar.

**1. Memorandum maqsadi**

**1.1.** Mazkur Memorandumning maqsadi Tomonlar o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va uzoq muddatli, samarali hamda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xususan, ularning o‘z loyihalarini va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan asosiy tamoyillar va yo‘nalishlarni belgilashdir. Shuningdek, SI huquqi, kiber huquqi mutaxassislarini tayyorlash, tadqiqotlar o‘tkazish, tartibga solishni ishlab chiqish va boshqa birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir.

**1.2.** Tomonlar umumiy amaliyotdan kelib chiqqan holda tenglik, ijobiy maqsad, hurmat va ishonch asosida hamkorlikni amalga oshiradilar.

**1.3.** Hamkorlikni amalga oshirish uchun Tomonlar pul mablag‘larini, ishlab chiqarish quvvatlarini, texnologik ishlanmalarni, litsenziyalarni, tijorat g‘oyalarini, “nou-xau”larni, shu bilan birga, Tomonlarga tegishli boshqa moddiy va nomoddiy aktivlarni jalb qilishlari mumkin.

## **2. Hamkorlik shakllari**

**2.1.** Tomonlar kelishilgan loyihalarni amalga oshirish niyatida ekanliklarini bildiradilar, bunda o'z manbalaridan hamda Tomonlarning o'z mablag'laridan foydalaniladi. Shu bilan birga, mazkur Memorandum Tomonlarga hech qanday moliyaviy majburiyat yuklamaydi. Hamkorlikning moliyaviy shartlari alohida shartnomalar bilan belgilanadi.

**2.2.** Ishlarning aniq shakllari va batafsil mazmuni, muddatlari, shakllari, tartibi, kelishilgan hamkorlik harakatlarini amalga oshirish majburiyatlari, loyihalar, uchinchi shaxslarni jalb qilish, shuningdek Tomonlar o'rtasida foydani taqsimlash har bir faoliyat turi bo'yicha Tomonlar tomonidan alohida shartnomalar, kelishuvlar yoki bayonnomalarda belgilanadi va mazkur Memorandumning ajralmas qismlari hisoblanadi.

**2.3.** Mazkur Memorandum doirasida hamkorlik bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, tegishli qarorlar qabul qilish uchun materiallar tayyorlash, tekshiruvlar va boshqa ishlarni o'tkazish maqsadida Tomonlar doimiy va vaqtinchalik ishchi, ekspert va maslahat guruhlari, Tomonlar komissiyalari, qo'mitalarini tuzishlari, ularga Tomonlar xodimlaridan mutaxassislarni jalb qilishlari va zarurat bo'lganda, uchinchi shaxslarni jalb etishlari mumkin.

**2.4.** Mazkur Memorandum Tomonlarning uchinchi shaxslar oldidagi boshqa shartnomalar va ular bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik bo'lmasligi kerak, bu majburiyatlar ushbu Memorandum bo'yicha Tomonlarning majburiyatlari bilan bog'liq emas.

**2.5.** Mazkur Memorandum oldindan tuzilgan shartnoma (O'zbekiston Respublikasi FK 369-moddasi) va oddiy shirkat shartnomasi (O'zbekiston Respublikasi FK 962-moddasi) hisoblanmaydi va mazkur Memorandum qoidalarini bajarmaslik uchun Tomonlarning javobgarligini keltirib chiqarmaydi: Tomonlardan hech biri boshqa Tomonga mazkur Memorandumni bajarish, muddatining tugashi yoki bekor qilinishi munosabati bilan boshqa Tomon tomonidan ko'rilgan har qanday turdagi zarar, xarajatlar, yo'qotishlar uchun tovon to'lashga majbur emas.

**2.6.** Mazkur Memorandumni imzolash Tomonlardan hech birini uchinchi shaxslarga nisbatan boshqa Tomonning har qanday majburiyatlari va/yoki qarzlari bilan yuklamaydi, Tomonlardan hech biri boshqa Tomon va/yoki Tomonlar uchun har qanday turdagi, jumladan, lekin cheklanmagan holda, soliq va/yoki sug'urta agenti maqomini olmaydi va sifatida ish yurmaydi, boshqa Tomon va/yoki Tomonlarning manfaatlarini ifodalamaydi hamda boshqa Tomon oldida ushbu Memorandumning 2.2-bandiga muvofiq keyingi hamkorlik jarayonida Tomonlar

tomonidan bevosita kelishilgan va mustahkamlanganlardan tashqari, hech qanday majburiyatga ega emas.

**2.7.** Har bir Tomon mazkur Memorandum shartlarini bajarish chog'ida yuzaga keladigan o'z xarajatlarini, Tomonlar o'rtasidagi tegishli kelishuvlarda alohida kelishib olinadigan holatlar bundan mustasno, o'zi qoplaydi.

**2.8.** Har bir Tomon mazkur Memorandum doirasidagi hamkorlikka taalluqli qismi bo'yicha boshqa Tomon bilan oldindan kelishmasdan ommaviy bayonotlar bilan chiqmaydi.

### **3. Tomonlarning hamkorlik sohasi va yo'nalishlari**

Tomonlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishni rejalashtirilmoqda:

#### **3.1. Ta'lim faoliyati va kadrlar tayyorlash:**

SI huquqi va kiber huquq sohasida birgalikdagi ta'lim dasturlari, kurslar, seminarlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Ma'ruzalar, master-klasslar, treninglar o'tkazish uchun tajriba, o'qituvchilar va ekspertlar bilan almashinuv;

Talabalar, doktorantlar va o'qituvchilar uchun stajirovkalar va amaliyotlarni tashkil etishga ko'maklashish;

yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni hamda oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish;

yurisprudensiyaning kelgusi istiqboldagi faoliyatini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratuvchi dolzarb muammoli mavzular bankini yaratish va ushbu mavzular bo'yicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borish;

yuridik kadrlarni tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishni tashkil etish;

TDYU professor-o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar shuningdek, bakalavriat, Magistratura va sirtqi ta'limda tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini samarali tashkil etish.

### **3.2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati:**

SI huquqiy jihatlari, kiber huquq va turdosh sohalar bo'yicha birgalikdagi tadqiqotlar o'tkazish;

Tahliliy materiallar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish;

Ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, davra suhbatlari, seminarlarda tashkil etish va ishtirok etish.

### **3.3. Tartibga solish va huquqiy asoslarni ishlab chiqish:**

SI va kiber huquq sohasida qonun loyihalarini, normativ-huquqiy hujjatlarni, standartlarni ishlab chiqishda hamkorlik qilish;

SI huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish bo'yicha ekspert xulosalari, tavsiyalar va takliflarni tayyorlash.

### **3.4. Qo'shma loyihalarni amalga oshirish:**

Huquqiy va etik jihatlarni hisobga olgan holda SI asosidagi texnologiyalar va tizimlarni ishlab chiqish hamda joriy etish;

Qo'shma tadqiqot laboratoriyalari, markazlar, ishchi guruhlarini tuzish;

SI va huquq sohasida milliy va xalqaro loyihalar, grantlar, dasturlarda ishtirok etish.

### **3.5. Axborot va nashriyot hamkorligi:**

Birgalikda ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, kitoblar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalarini nashr etish;

Birgalikda axborot byulletenlari, jurnallar, to'plamlarni chop etish;

Birgalikdagi axborot resurslarini, veb-saytlarni, ma'lumotlar bazalarini yaratish va qo'llab-quvvatlash.

## 4. Maxfiylik

4.1. Ushbu Memorandum normalarini amalga oshirish doirasida Tomonlar har bir Tomonning mulki hisoblangan maxfiy ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'ladilar.

4.2. "Maxfiy ma'lumot" deganda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan bank, tijorat va boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar, shuningdek har qanday oshkor etilmagan ma'lumotlar, jumladan har qanday ilmiy-texnik, texnologik, ishlab chiqarish, yuridik, moliyaviy-iqtisodiy yoki boshqa axborot (nou-hau), shu jumladan har bir Tomon va uning hamkorlari, mijozlari, ularning ta'sischilari, filiallari, vakolatxonalari, sho'ba va qaram jamiyatlari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan yoki aks ettirgan hujjatlar;

Tomonlar mijozlarining pul mablag'lari, ularning bitim va kontagentlari haqida ma'lumot;

Tomonlar o'rtasidagi yozishmalar va boshqa ma'lumotlar, maxfiylik to'g'risida bosma yoki elektron ko'rinishda tegishli shtamp yoki yozuvga ega ma'lumotlar va hokazolar;

uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki potensial tijorat yoxud maxfiy qimmati mavjud bo'lgan, qonuniy asosda erkin kirish imkoni mavjud bo'lmagan hamda Tomonlar tomonidan himoya rejimining joriy etilgan yoki ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan himoyalangan ma'lumotlar tushuniladi.

4.3. Quyidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanmaydi:

ommaviy manbadan olingan ma'lumotlar;

Tomonlarning o'zlari tomonidan oshkor qilingan, Tomonlarning mulkiga taalluqli ma'lumotlar;

maxfiy bo'lmagan va tarqatilishiga o'zlarining cheklovlari o'rnatilmagan uchinchi shaxslardan rasmiy qonuniy yo'l bilan olingan ma'lumotlar;

Tomonlarga mazkur Memorandum bo'yicha muzokaralarga kirishishdan oldin ma'lum bo'lgan ma'lumotlar;

ommaviy foydalanishda bo'lgan ma'lumotlar, agar ushbu ma'lumotni olgan Tomon har qanday qonun buzilishlarni amalga oshirmagan va uni olish uchun noqonuniy harakatlarni amalga oshirmagan bo'lsa.

#### **4.4. Tomonlar quyidagilarga majburdirlar:**

(a) Maxfiy ma'lumotni g'amxo'rlik qilish va Maxfiy ma'lumotning yo'qolishi yoki unga shikast yetkazilishi bilan bog'liq boshqa Tomonning zararlarining oldini olish uchun choralar ko'rish;

(b) Maxfiy ma'lumotning xavfsizligiga tahdid soluvchi barcha holatlar haqida boshqa Tomonni o'z vaqtida xabardor qilish;

(v) Tomonlarning mazkur Memorandum bo'yicha o'z majburiyatlarini bevosita bajarish holatlaridan tashqari, Maxfiy ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik;

(g) boshqa Tomonga Qabul qilish-topshirish Dalolatnomasi bo'yicha, Maxfiy ma'lumot va texnik vositalarni (kompyuter, noutbuk, flesh-kutgichlar va boshqa) undagi bunday ma'lumot mavjud bo'lgan va/yoki bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda undan foydalanish tugagandan so'ng yoki mazkur Memorandum amal qilishi muddati tugashi va/yoki bekor qilinishi kunidan kechiktirmay qaytarish.

**4.5.** Ushbu Memorandum doirasida Maxfiy ma'lumotni himoya qilish bo'yicha yetarli choralar deganda Maxfiy ma'lumotga boshqa Tomonning roziligisiz uchinchi shaxslarning kirishini istisno etuvchi hamda Maxfiy ma'lumotni uning maxfiylik rejimi buzilmasdan foydalanish va uzatish imkoniyatini ta'minlovchi choralar tushuniladi.

**4.6.** Tomonlardan birining aybi bilan Maxfiy ma'lumotni oshkor qilishga yo'l qo'yilgan holda:

(a) Memorandumni imzolash orqali Tomon boshqa Tomonga yetkazilgan bevosita va bilvosita zararni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

(b) Maxfiy ma'lumotni oshkor qilishga yo'l qo'ygan Tomondan boshqa Tomonning zararni qoplash haqidagi da'vosi Maxfiy ma'lumotni oshkor qilishga yo'l qo'ygan Tomonga yozma shaklda taqdim etilishi kerak.

**4.7.** Mazkur Memorandumning amal qilishi muddati tugashi yoki to'xtatilishi bilan Tomonlar bir-birlariga Maxfiy ma'lumotning barcha tashuvchilarini, ya'ni qo'lyozmalarni, qoramalarni, chizmalarni, magnitli lentalarni, disklarni, disketlarni, chop etilgan ma'lumotlarni, filmlarga va fotosuratlarga negativlarni, pozitivlarni, modellarni, materiallarni, mahsulotlarni, elektron xatlarni, ilovalarni, ma'lumotlarni va boshq.larni qaytaradilar va ularda Maxfiy ma'lumotlar mavjud emasligini yozma shaklda tasdiqlab beradilar. Bundan tashqari, Tomonlar mazkur Memorandum doirasidagi o'z faoliyatlari bilan bog'liq barcha yozishmalarni shaxsiy elektron pochta qutisidan, mobil telefonlardan va ijtimoiy tarmoqlardan o'chirishga rozilik bildiradilar.

**4.8.** Tomonlar mazkur Memorandumning maxfiylik talablariga uning amal qilishi yoki to'xtatilganidan so'ng 1 (bir) yil davomida rioya etishga majburdirlar.

## **5. Fors-major holatlari**

**5.1.** Tomonlardan biriga ushbu Memorandum bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch holatlari yuz berganda, ta'sir ko'rgan Tomon darhol boshqa Tomonga bunday holatlar yuzaga kelganligini xabar qilishi, boshqa Tomonga bunday holatlar haqida batafsil ma'lumot, shuningdek bunday yengib bo'lmas kuchlar amal qiladigan muddat haqida asosli baholashni taqdim etishi shart.

**5.2.** Yengib bo'lmas kuchlar yuz bergan taqdirda, Tomonlarning majburiyatlari bunday holatlar davom etadigan davrga mutanosib ravishda kechiktirilishi mumkin.

**5.3.** Agar yengib bo'lmas kuchlar holatlari bir oydan ortiq davom etsa, Tomonlardan har biri mazkur Memorandumni bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. Bunday holda, Tomonlardan hech biri boshqa Tomondan mazkur Memorandumni bekor qilinishi bilan yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

## **6. Memorandumning amal qilish muddati va nizolarni hal etish**

**6.1.** Ushbu Memorandum imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi va Tomonlarning uni bekor qilishga o'zaro roziligi bilan to'xtatiladi.

**6.2.** Mazkur Memorandum Tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi sanasidan 30 (o'ttiz) kalendar kun avval mazkur Memorandumni bekor qilish haqida boshqa Tomonni yozma ravishda majburiy xabardor qilgan holda bekor qilinishi mumkin.

**6.3.** Tomonlar ushbu Memorandum doirasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish yo'li bilan hal qilish uchun barcha zarur choralarni ko'rishga majburdirlar.

**6.4.** Tomonlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, agar ular muzokara yo'li bilan hal etilmasa, Toshkent Tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun topshiriladi.

## 7.Yakunlovchi qoidalar

7.1. Tomonlar tomonidan ushbu Memorandumda tartibga solinmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinishi lozim.

7.2. Ushbu Memorandumga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma shaklda tuziladi va Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

7.3. Ushbu Memorandum o‘zbek tilida ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, har bir Tomon uchun bittadan - barcha nusxalar teng yuridik kuchga ega.

7.4. Tomonlardan har biri boshqa Tomonni uning nomlanishi, manzili, telefon raqamlari, faksi va Internet tarmog‘idagi manzilining o‘zgarishi haqida bunday o‘zgarishlar sanasidan boshlab 5 ish kuni davomida xabardor qilishga majbur.

7.5. Tomonlardan hech biri ushbu Memorandum, uning ijrosini ta‘minlash doirasida tuzilgan shartnomalar va/yoki kelishuvlar bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma roziligi bo‘lmagan holda, bundan Tomonlar aniq shartnoma va/yoki kelishuvda kelishgan va ko‘rsatilgan hollar mustasno, uchinchi shaxslarga o‘tkazishga haqli emas.

7.6. Tomonlar ushbu Memorandumni hamda alohida shartnomalar va/yoki kelishuvlarni imzolash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shu jumladan halol raqobat va monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risidagi qonunchilikka mos kelishini va mos kelishini kafolatlaydilar.


7.7. Tomonlar predmeti, amal qilish sohasi va shartlari bo‘yicha shu kabi shartnomalar va/yoki kelishuvlarni boshqa shaxslar bilan tuzish huquqiga egadirlar. Tomonlar o‘z faoliyatida kontragentlarni tanlashda to‘liq erkinlikka ega.

## 8.Tomonlar imzosi

**“Markaziy Osiyo Sun’iy Intellekt  
Assotsiatsiyasi” NNT raisi**

**Toshkent davlat yuridik universiteti  
Birinci prorektori**

V. Norov



2024-yil “ 05 ” aprel

A. Xashimhonov



2024-yil “ 05 ” aprel